

Muddatli omonatning asosiy shartlari to'g'risida¹

AXBOROT VARAQASI²

Bank nomi	«AVO bank» AJ
Bank sayti	https://avo.uz
Telefon raqami	+998 (78) 888-78-87

1 bo'lim. Asosiy qoidalar

1.	Omonat nomi	«Muddatli omonat»
2.	Omonat valyutasi	O'zbek so'mi
3.	Bazaviy foiz stavkasi	yillik 22,52%
4.	Bazaviy foiz stavkasini qo'llash qoidalari	Omonat summasi 100 000 so'mdan
5.	Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitallashtirishning mavjudligi (hisoblangan foizlarni asosiy summaga qo'shgan holda foizlarni qayta hisoblash)	Mavjud
6.	Omonat muddati	6 oy
7.	Omonatning minimal summasi	0,01 so'm
8.	Ochilganda / Qo'shimcha badal kiritilganda minimal to'ldirish summasi	1000 so'm
9.	Omonat bo'yicha foizlar to'lash davriyligi	Har oy, Omonat hisobraqamiga (foizlarning Kapitallashtirilishi bilan)
10.	Omonatni rasmiylashtirish usuli	Onlayn
11.	Omonatga Qo'shimcha badal kiritish imkoniyati	Mavjud

¹ Axborot varaqasi matnida <https://avo.uz/ru/documents> manzilida joylashtirilgan "AVO bank" AJda jismoniy shaxslarga keng qamrovli bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha Bosh shartnomada belgilangan atamalardan foydalanilgan.

² Ushbu varaqa Omonat Shartnomasini yoki Arizaning o'rnini bosmaydi, balki turli banklarning omonat shartlarini taqqoslash va zarur tanlovni amalga oshirishda yordam beradi.

12.	Avtomatik muddatini uzaytirish (Omonat muddati tugashi bilan Omonat muddatining Bank tomonidan bir tomonlama uzaytirilishi)	Yo'q
-----	---	------

2 bo'lim. Boshqa muhim qoidalar

1.	Omonat muddati tugagunga qadar Omonattan pul mablag'larini Qisman yechish imkoniyati	Mavjud
2.	Omonatni Muddatidan oldin yopish imkoniyati	Mavjud, hisoblangan foizlar Bank Tariflariga muvofiq omonatda pul mablag'lari haqiqatda bo'lgan kunlar soni uchun to'lanadi
3.	Pasaytirilgan foiz stavkasi	yillik 0,01%
4.	Pasaytirilgan foiz stavkasini qo'llash qoidalari	Omonat summasi 100 000 so'mdan kam bo'lganda
5.	Kuniga ochilgan Omonatlar soni bo'yicha cheklov	5 ta omonatdan ko'p emas
6.	Oyiga ochilgan Omonatlar soni bo'yicha cheklov	50 ta omonatdan ko'p emas
7.	Bank tomonidan omonatga qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi 18.02.2025-yildagi O'RQ-1031-son Qonuniga muvofiq har bir omonatchi uchun 200 000 000 so'mgacha bo'lgan miqdorda kafolatlanadi.	

Omonat amalga oshirilishiga rozilik berishdan oldin diqqat bilan tanishib chiqing!

Siz Bankdan Omonat shartlari, Omonat bo'yicha foiz daromadlari va hisob-kitob tartibi hamda o'z huquq va majburiyatlaringiz haqida, shuningdek Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa savollar bo'yicha to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Shikoyatlar bo'lsa, +998 78 888-78-87 telefoniga murojaat qilishingiz yoki murojaatingizni 100060, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A uy manziliga yoki info@avo.uz elektron manziliga yo'llashingiz mumkin.